Banklarning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lganligi sababli passivlar tarkibi, xususan, jalb qilingan nodepozit resurslarning tuzilishi va xususiyatlari tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning tarkibi va xarakteri banklarning kreditlash siyosati yo'nalishlari va ustuvorliklarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslari shakllanishini boshqarish va ularni tizimli tahlil qilish jarayonida bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning holati, ularning muddatlari, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, kreditlashga yo'naltirilgan resurslarning qiymati va daromadliligi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha muntazam monitoring olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon kredit qo'yilmalari manbalarining rentabelligini oshirishga hamda banklarning optimal kredit portfelini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi².

Quyidagi 1-rasmda mamlakatimizda tijorat banklari moliyaviy resurs bazasini kengaytirish va mustahkamlash jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar keltirilgan.



1-rasm. Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashdagi muammolar³

Tijorat banklarida moliyaviy resurslar shakllanishida ikki asosiy bozor instrumenti muhim ahamiyat kasb etadi: pul bozori instrumentlari va kapital bozori instrumentlari. Pul bozori instrumentlari orqali banklararo kreditlar, yuridik va jismoniy shaxslarning depozit va omonatlari, Markaziy bank kreditlari hamda qimmatli

1 Qoraliev T.M., Sattarov O.B. va boshqalar, "Tijorat banklari faoliyati tahlili". O'quv qo'llanma. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2013.

2 Bektimorov A.A., Xaydarov Z.S. va boshqalar, "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish", O'quv qo'llanma. Samarqand iqtisodiyot va servis institute, 2020.

3 Berdiyarov B.T. "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2020.



qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali moliyaviy resurslar shakllantiriladi. Shu bilan birga, kapital bozori instrumentlari asosida kredit qo'yilmalari resurslarini shakllantirish aksiyalarni muomalaga chiqarish orqali amalga oshiriladi.


Tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar banklarning passiv operatsiyalari orqali shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalari ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan resurslar;
2. jalb qilingan moliyaviy mablag'lar hisobidan shakllantiriladigan resurslar⁴.

Shuningdek, ayrim xorijiy ilmiy adabiyotlarda jalb qilingan resurslar ham ikki guruhga ajratib o'rganiladi. Bunda birinchi guruhni tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozit mablag'lari tashkil etsa, ikkinchi guruhni bank tomonidan moliya bozorlaridan jalb qilingan moliyaviy resurslar, ya'ni nodepozit manbalar tashkil etadi.

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayon hisoblanadi va bu, o'z navbatida, tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlashning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. O.B. Sattarov (2022) o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tijorat banklari faoliyatida jalb qilingan nodepozit moliyaviy resurslar banklarning operatsion faoliyatini kengaytiradi, to'lovlar tizimini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi hamda mijozlarni kreditlash imkoniyatlarini oshiradi. Natijada, banklarning asosiy daromad manbai hisoblangan foizli daromadlar hajmi ortadi"⁵.

Quyidagi 2-rasmda globallashtirish sharoitida tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlash, uni samarali boshqarish hamda optimallashtirishning nazariy asoslari aks ettirilgan.



2-rasm. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari resurslari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslari⁶

Tahlillar va o'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari moliyaviy resurslarining hajmi va muddatiga mamlakat milliy valyutasining qadrsizlanish darajasi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari nodepozit resurslarini samarali boshqarishda valyuta risklari va ularni baholash mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan xorijiy valyutada nodepozit resurslar jalb qilingan taqdirda, valyuta kursining o'zgarishi natijasida bankning moliyaviy xarajatlari ortishi mumkin. Shu bilan birga, nodepozit qarzlarning ulushining yuqori darajada bo'lishi bankning moliyaviy barqarorligiga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi. Bu holat bank reyting ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin hamda istiqbolda yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklashi ehtimolini yuzaga keltiradi.


O'zbekiston bank tizimining resurs bazasini kengaytirishda banklarning mustaqil moliyaviy salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Shuningdek, banklar tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish jarayonida jalb qilingan mablag'larning safarbar etilish darajasi, tijorat banklarining kredit potentsiali tuzilmasi, shuningdek, bank amaliyotida shakllantirilayotgan rezervlar va fondlarni kompleks tarzda hisobga olgan holda samarali boshqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Quyida keltirilgan 3-rasmda tijorat banklari faoliyatida moliyaviy resurslarni shakllantirishda, xususan, nodepozit manbalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar guruhi aks ettirilgan.

4 Qoraliyev T.M., Sattarov O.B. va boshqalar, "Tijorat banklari faoliyati tahlili". O'quv qo'llanma. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2013.

5 Bektimorov A.A., Xaydarov Z.S. va boshqalar, "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish", O'quv qo'llanma. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2020;

6 Muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm. Tijorat banklari resurs bazasining samarali shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar⁷

Tijorat banklari resurs bazasining samarali shakllanishida moliyaviy omillar ta'siri birinchi navbatda o'rganiladi. Moliyaviy omillar guruhiga Markaziy bankning monetar siyosati, tijorat banklari depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi hamda iqtisodiyotdagi monetizatsiya koeffitsienti bilan bog'liq yo'nalishlar muhim hisoblanadi.

Markaziy bank o'zining monetar siyosati samaradorligi orqali, xususan, asosiy stavkani o'zgartirish, majburiy zaxiralar me'yori shakllantirish, shuningdek ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish kabi instrumentlar yordamida tijorat banklarining resurs bazasiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlar orqali bank tizimida likvidlik darajasi tartibga solinadi, resurslar qiymati shakllantiriladi hamda tijorat banklarining depozit va nodepozit manbalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining ichki tizimi, tashkiliy tuzilmasi, texnologiyalari, xizmat ko'rsatish uslublari hamda yuzaga keladigan risklarni boshqarish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida o'zgartirish va takomillashtirish, bank kredit portfelini kengaytirish va uning daromadlilikini oshirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishida transformatsiyalashuv sharoitida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash masalalari o'rganilib, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar samaradorligini oshirish hamda kredit portfelini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari moliyaviy resurslari bazasini takomillashtirishga oid mavjud ilmiy adabiyotlar va nazariy yondashuvlarni kompleks o'rganish, shuningdek tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar ko'rsatkichlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot asosan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi asosida amalga oshirildi. Tahlil uchun asosiy ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika agentligi hamda tijorat banklari faoliyatiga oid rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Shu bilan birga, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va kreditlash faoliyatini takomillashtirishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot natijalari ham keng o'rganildi va umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlash hajmining oshishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining faollashuvi, dollarlashuv darajasining kengayishi hamda boshqa makroiqtisodiy omillar ta'sirida kredit qo'yilmalari hajmining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ta'kidlash lozimki, tijorat banklarida kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 2019–2024-yillar davomida o'rtacha 42,3 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 2025-yil 1-yanvar holatiga 533,1 trln so'mni tashkil etib, kreditlarning bank aktivlari tarkibidagi ulushi qariyb 70 foizga yetdi⁸. Bu holat bank aktivlari tarkibida kredit operatsiyalarining ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.

7 Adilov M.M., "Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish". Iqtisodiyot fanlari (PhD) bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2025.

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Statistika bulleten - 2024, "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari", ma'lumotlari.



Tijorat banklari moliyaviy resurslari bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish orqali, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda optimallashtirish hamda aktiv va passivlarni samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari passivlari tarkibida depozitlarning ulushi odatda 65–70 foizni tashkil etadi. Mamlakatimiz bank tizimi majburiyatlari tarkibi tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy ulush depozitlar hamda nodepozit resurslar, xususan olingan kreditlar va lizing majburiyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Statistik ma'lumotlar tahlili bank tizimi majburiyatlari tarkibida nodepozit resurslarning, ayniqsa olingan kreditlar va lizing majburiyatlarining muhim ulushga ega ekanligini tasdiqlaydi. Jumladan, jalb qilingan nodepozit resurslar ulushi 2018-yilda jami majburiyatlarning 55,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 35,6 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, tijorat banklari depozitlari hajmi 2018–2024-yillar davomida 4,4 barobarga oshib, ularning jami resurslar tarkibidagi ulushi 37,3 foizdan 47,2 foizgacha ko'tarildi. Mazkur o'sish bank tizimiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanib borayotganligini hamda aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning depozit qo'yish faolligi ortayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tijorat banklarida likvidlik darajasining qisqarishi ayrim davrlarda banklararo pul bozoridan mablag'larni jalb qilish operatsiyalari hajmining ortishiga olib kelgan. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, masalan, AQSh bank tizimi resurslari tarkibida nodepozit mablag'larning ulushi o'rtacha 23,2 foizni tashkil etadi. Bunda e'tiborli jihat shundan iboratki, mazkur mablag'larning asosiy qismi banklararo kreditlar hisobidan emas, balki xalqaro moliyaviy majburiyatlar hamda nobank moliyaviy institutlar resurslari hisobidan shakllantiriladi.

Jahon banki ekspertlari tavsiyalariga ko'ra, banklararo kreditlarning jami jalb qilingan mablag'lar tarkibidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi, optimal darajada esa 20 foizdan kam bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yondashuv tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda resurs bazasining risk darajasini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida keltirilgan 1-jadvalda tijorat banklarida olingan kreditlar va lizing majburiyatlarining nodepozit moliyaviy resurslar tarkibidagi ulushi dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval. Tijorat banklarida olingan kreditlar va lizinglarning majburiyatlar va nodepozit moliyaviy manbalardagi ulushi⁹, (mlrd. so'm)


Ko'rsatkichlar/ Yillar	Olingan kreditlar va lizinglar miqdori	Jami majburiyatlarda ulushi, %	Nodepozit moliyaviy manbalarda ulushi, %
2019	105 252	47,5	80,5
2020	151 704	49,3	56,7
2021	173 750	46,5	79,7
2022	186 614	39,1	70,5
2023	224 351	40,4	71,6
2024	234 667	35,9	67,9

Jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, mamlakatimiz bank tizimida jalb qilingan kreditlar va lizinglarning ulushi Jahon banki ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan normativ darajalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni namoyon etmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining tashqi sektorga oid majburiyatlari hajmi so'nggi besh yil davomida sezilarli darajada oshgan bo'lib, aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda tashqi qarz mablag'laridan faol foydalanilgan. Mazkur holat banklar resurs bazasini kengaytirishda tashqi moliyaviy manbalarning muhim o'rin tutayotganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida tijorat banklari emitent va investor sifatida aksiyalar bozorida faol ishtirok etayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Tijorat banklari resurslari hajmini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ushbu yo'nalish muhim imkoniyatlarni yaratadi. Tijorat banklari tomonidan kapital bozoridan qimmatli qog'ozlar orqali moliyaviy resurslarni jalb etishda daromadlilik va likvidlilik darajasi investorlar tomonidan asosiy baholash mezonlari sifatida qaratiladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar orqali tijorat banklari nodepozit moliyaviy resurslarni shakllantirishi xorijiy banklar amaliyotida keng qo'llaniladigan va samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Quyida keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida qo'shni davlat Qozog'iston va mamlakatimiz O'zbekiston tijorat banklarining jamlanma balansida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ulushi hamda uning o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi (4-rasm).

9 Allaberganov S.S. (2025), "Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari", "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy elektron jurnali, 4-son, Aprel, 2025, 1131-1142b.




4-rasm. Tijorat banklari jamlanma balansida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ulushi va uning o'zgarish dinamikasi¹⁰, (foizda)

Keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Qozog'iston tijorat banklari moliyaviy resurslar hajmini oshirish va banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qimmatli qog'ozlar orqali nodepozit moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha ijobiy natijalarga erishgan. Xususan, Qozog'iston tijorat banklari balansida qimmatli qog'ozlar ulushi 2020-yilda yuqori darajada qayd etilgan. 2021–2022-yillarda ushbu ko'rsatkichning ma'lum darajada pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, 2023-yildan boshlab barqaror tiklanish tendensiyasi shakllangan va 2024-yil yakuniga kelib 6,84 foizni tashkil etgan. Mazkur holat tijorat banklari tomonidan kapital bozori instrumentlaridan samarali foydalanish orqali resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Jahon bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, depozit operatsiyalari tijorat banklari passivlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning ulushi odatda 70 foizdan ortiqni tashkil qiladi. Tijorat banklarining depozit siyosati ularning kredit siyosati, foiz siyosati hamda boshqa faoliyat yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bank resurs bazasini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan depozit resurslarini jalb qilish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bu esa tijorat banklari resurs bazasini yanada kengaytirish va depozit siyosatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Quyida keltirilgan 5-rasmda mazkur holatni asoslash maqsadida jalb qilingan depozitlarning ajratilgan kreditlarga nisbati ko'rsatkichi asosida mamlakatimiz tijorat banklari faoliyati tahlili keltirilgan.



5-rasm. Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlarning ajratilgan kreditlarga nisbati va uning o'zgarish dinamikasi¹¹, (foizda)

10 Sultanmuratova D.Sh. (2025), "Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari", "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy elektron jurnali, Fevral 2025, 2-son, 772-779b.


11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Statistik bulletin, "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari" ma'lumotlari asosida mustaqil tayyorlandi, 2024-yil.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida depozitlarning ajratilgan kreditlarga nisbati bank likvidlik darajasini, ya'ni berilgan kreditlar tarkibida depozit mablag'larining ulushini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, tahlil davrida mamlakatimiz tijorat banklarida jalb qilingan depozitlarning ajratilgan kreditlarga nisbati 33–53 foiz oralig'ida shakllangan. Bu esa kredit qo'yilmalarining muhim qismi depozit resurslari hisobidan emas, balki nodepozit moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtirilganligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalari hajmi, ularning barqarorlik darajasi hamda shakllanish manbalari banklarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, tijorat banklari resurslari hajmining oshishi ularning qiymati va jalb qilish shartlariga ham bog'liqdir. Shu sababli, kreditlash faoliyatini amalga oshirishdan avval moliyaviy resurslar manbalarini optimallashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Natijada moliyaviy resurslarning qiymati va muddatlari bo'yicha maqbul tarkibini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi hamda bank faoliyatining samaradorligi oshadi.

Quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida tadqiqot obyekti hisoblangan ATB "Turonbank" tijorat bankining balans passivlari tarkibiy tuzilmasi va ularning tahlili keltiriladi (6-rasm).



6-rasm. ATB "Turonbank"ning balans passivining tarkibiy tuzulishi¹², (mlrd. so'm)

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ATB "Turonbank"ning depozitlari, kapitali va nodepozit moliyaviy resurslari yildan yilga barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Ta'kidlash lozimki, 2019–2024-yillar oralig'ida bank depozitlari hajmi 1 652,8 mlrd so'mdan 5 486,2 mlrd so'mga yetgan, ya'ni qariyb uch barobarga oshgan. Shuningdek, bankning nodepozit majburiyatlari ham sezilarli darajada ortib borgan bo'lib, 2019-yildagi 3 235,5 mlrd so'mdan 2025-yil 1-yanvar holatiga 10 180,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu holat bankning moliyaviy majburiyatlari hajmi kengayayotganini hamda investorlar va kreditorlar tomonidan jalb qilinayotgan moliyaviy mablag'lar hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya bankning moliya bozoridagi faolligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot obyekti hisoblangan ATB "Turonbank"da nodepozit resurslar asosiy moliyaviy manbalardan biri sifatida shakllanib, tahlil davrida umumiy majburiyatlar tarkibida muhim ulushni egallagan. Ushbu resurslar, odatda, banklararo kreditlar, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilingan mablag'lar hamda boshqa moliyaviy instrumentlar hisobidan shakllantiriladi. Mazkur holat bank faoliyatida tashqi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish amaliyoti rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, nodepozit resurslar ulushining yuqoriligi bank resurs bazasini diversifikatsiya qilish zarurligini ham anglatadi, chunki moliyalashtirish manbalarining muvozanatli tarkibini shakllantirish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston bank tizimi majburiyatlari tarkibida 2019–2024-yillar davomida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. Bu jarayon tijorat banklari moliyaviy resurslar manbalarini kengaytirish va ularni samarali boshqarish bilan bog'liq bo'lib, bank tizimining rivojlanish bosqichiga xos tabiiy jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashda nodepozit moliyaviy resurslar tarkibida subordinar qarzlarning ulushi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, subordinar qarzlarning ulushining bank jami majburiyatlari tarkibida kamida 5 foiz darajasida shakllanishi

¹² ATB "Turonbank"ning rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.



maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur qarzlar, odatda, uzoq muddatga (5–10 yil) jalb qilinishi bilan tavsiflanadi va bank kapital bazasini mustahkamlash, riskka tortilgan aktivlar bo'yicha operatsiyalarni kengaytirish hamda bank likvidligini qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichida tijorat banklarining moliyaviy resurslarini optimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, mavjud moliyaviy risklarni samarali boshqarish hamda shu asosda bank kredit operatsiyalarining daromadlilikini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bank resurs bazasini barqaror shakllantirish va uni samarali boshqarish tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari hisoblanib, ular banklarning foizli daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Kredit foiz stavkalarining shakllanishi bank marjasi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa, o'z navbatida, jalb qilingan moliyaviy resurslarning qiymati va muddatiga chambarchas bog'liqdir. Shu sababli tijorat banklari kreditlash amaliyotini kengaytirish, resurs bazasini samarali boshqarish va kreditlash uchun zarur moliyaviy resurslarni optimallashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali shakllantirish va boshqarish tizimi bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini o'rganish, ularni turkumlash, bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish, moliyaviy resurslar tarkibini iqtisodiy tahlil qilish hamda ularni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Statistik ma'lumotlar va olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz bank tizimi majburiyatlari tarkibida asosiy nodepozit moliyaviy resurslar sifatida olingan kreditlar va lizing mablag'lari muhim ulushni tashkil etadi. Xususan, jalb qilingan kreditlar va lizing mablag'lari ulushi tahlil davrining boshida, ya'ni 2018-yilda 55,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024-yil yakuniga kelib qariyb 36 foiz darajasini tashkil etgan. Mazkur tendensiya tijorat banklari resurs bazasida depozit manbalarining ulushi ortib borayotganini va resurs bazasi tarkibida muvozanatli tuzilma shakllanayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklari resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- tijorat banklarida depozit siyosatini yanada takomillashtirish va aholi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga keng jalb etish;
- nodepozit moliyaviy resurslar tarkibini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli moliyaviy manbalar ulushini oshirish;
- kapital bozori moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini kengaytirish, jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasini rivojlantirish;
- bank resurslari qiymatini optimallashtirish orqali kredit operatsiyalarining daromadlilikini oshirish va bank marjasi barqarorligini ta'minlash;
- tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash.

Natijada, tijorat banklari moliyaviy resurs bazasini samarali shakllantirish va boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, kreditlash hajmini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2022-yil hamda 2023–2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. – Toshkent, 2019–2024-yillar sonlari.
3. Berdiyev B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020.
4. Bektimirov A.A., Xaydarov Z.S. va boshqalar. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2020.
5. Rasulov T.S., Ziyodilloev X.R. Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo'nalishlari: monografiya. – Toshkent, 2024.
6. Otamurodov H.H. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.
7. Mohammad J.M. Optimal Bank Loan Portfolio in Iranian's Banks. Research Journal of Finance and Accounting. – 2013. – Vol. 4, No. 2. – ISSN 2222-1697.
8. Qurbonov R.B. Xususiy banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100